XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 16 - noyabr VI-52-130-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Zomin tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizom ijrosi yuzasidan hamda Zomin tuman hokimining 2023-yil 2-maydagi 81-3-48-F/23-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Jizzax viloyati Zomin tumanidagi mavjud shahar, shaharchalar va qishloqlarning chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **1 004 100 metr,** umumiy maydoni **260 706,97 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

-“ Dashtobod” shahri umumiy perimetri 21 259 metr ekanligi, umumiy maydoni 1 493,16 gektar;

- “Zomin” shaharchasi umumiy perimetri 42 668 metr ekanligi, umumiy maydoni 2 163,86 gektar;

-“ Yom” shaharchasi umumiy perimetri 10 068 metr ekanligi, umumiy maydoni 370,13 gektar;

-“ Peshog'or” shaharchasi umumiy perimetri 14 172 metr ekanligi, umumiy maydoni 508,01 gektar;

- Alisher Navoiy qishlog‘i umumiy perimetri 151 932 metr ekanligi, umumiy maydoni 45 334,05 gektar;

- Beshkubi qishlog‘i umumiy perimetri 86 953 metr ekanligi, umumiy maydoni 19 898,02 gektar;

- G'allakor qishlog‘i umumiy perimetri 73 835 metr ekanligi, umumiy maydoni 17 564,70 gektar;

- Gulshan qishlog‘i umumiy perimetri 35 808 metr ekanligi, umumiy maydoni 5 210,86 gektar;

- Duoba qishlog‘i umumiy perimetri 203 151 metr ekanligi, umumiy maydoni 82 124,29 gektar;

- Istiqlol qishlog‘i umumiy perimetri 131 092 metr ekanligi, umumiy maydoni 25 016,94 gektar;

- Obihayot qishlog‘i umumiy perimetri 35 418 metr ekanligi, umumiy maydoni 5 011,22 gektar;

- Chorvador qishlog‘i umumiy perimetri 133 999 metr ekanligi, umumiy maydoni 42 547,97 gektar;

- Shirin qishlog‘i umumiy perimetri 63 745 metr ekanligi, umumiy maydoni 13 463,76 gektar ekanligi aniqlandi.

Zomin tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash jarayonida Dashtobod shahri hamda har bir shaharchalar va qishloqlar ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘laydigan chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va yo‘nalishi keltirilib, burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kadastr agentligi Zomin tumani bo‘limi boshlig‘ining ma'ruzasini muhokama qilib , taqdim etilgan Jizzax viloyat hokimining 20.04.2009 yildagi 64-sonli, Xalq deputatlari Jizzax viloyat kengashining 20.09.2020 yildagi 84/13 sonli qarori, Xalq deputatlari Zomin tuman kengashining 20.02.2021 yildagi 19/2-sonli qarorlariga asosan tasdiqlangan aholi punktlari chegaralari doirasidagi ma’lumotlar, fikr va mulohazalar hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Zomin tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Kadastr agentligi Zomin tuman bo‘limi boshlig‘i X.Tolipovning Zomin tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi ma’ruzasi hamda Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Dashtobod shahri hamda mavjud shaharchalar va qishloqlarning chegarlarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib

chiqish yuzasidan tuman hokimining 2023-yil 2-maydagi 81-3-48-F/23-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan ishchi guruhining 2023-yil 25-sentabrdagi 1- sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zomin tumanidagi Dashtobod shahri hamda mavjud shaharchalar va qishloqlarning chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risida keltirilgan ma’lumotlar **1-ilovaga,** kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati B.Berdimurodovga mazkur qaror tuman hokimligining internetidagi rasmiy veb-saytida yoritilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 16-noyabrdagi
VI-52-130-3-48-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zomin tumani hududidagi shahar, shaharchalar hamda qishloqlarning chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risida


M A ‘ L U M O T

T/r	Shahar, shaharchalar va qishloqlarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Dashtobod shahar	21 259	1 493,16
2	Zomin shaharchasi	42 668	2 163,86
3	Yom shaharchasi	10 068	370,13
4	Peshog'or shaharchasi	14 172	508,01
5	Alisher Navoiy qishlog'i	151 932	45 334,05
6	Beshkubi qishlog'i	86 953	19 898,02
7	G'allakor qishlog'i	73 835	17 564,70
8	Gulshan qishlog'i	35 808	5 210,86
9	Duoba qishlog'i	203 151	82 124,29
10	Istiqlol qishlog'i	131 092	25 016,94
11	Obihayot qishlog'i	35 418	5 011,22
12	Chorvador qishlog'i	133 999	42 547,97
13	Shirin qishlog'i	63 745	13 463,76
	Tuman bo‘yicha jami:	**1 004 100**	**260 706,97**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 16-noyabrdagi
VI-52-130-3-48-K/23-son qaroriga
2-ilova

Zomin tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha katografik

C H I Z M A S I


Jizzax viloyati Zomin tumani shahar, shaharchalar va qishloqlar chegaralarining loyihaviy SXEMASI
B
Sirdaryo viloyati
Istiqlol qishlog'i
D
Tojikiston Respublikasi
Zarbdor tumani
Dashtobod shahri
A
E
Yom shaharchasi
Gulshan qishlog'i
G'allakor qishlog'i
Obihayot qishlog'i
Peshog'or shaharchasi
Shirin qishlog'i
Zomin shaharchasi
Yangiobod tumani
Sharof Rashidov tumani
Alisher Navoiy qishlog'i
Chorvador qishlog'i
F
H
Beshkubi qishlog'i
Baxmal tumani
Duoba qishlog'i
G
Tojikiston Respublikasi
Chegaradosh yerlar izohnomasi
A dan B gacha Zarbdor tumani yerlari
B dan D gacha Sirdaryo viloyat yerlari
D dan E gacha Tojikiston Respublikasi yerlari
E dan F gacha Yangiobod tumani yerlari
F dan G gacha Tojikiston Respublikasi yerlari
G dan H gacha Baxmal tumani yerlari
H dan A gacha Sharof Rashidov tumani yerlari
Sartli belgilar
Davlat chegaralari
Viloyatlar chegarasi
Tumanlar chegarasi
Shaharlar va shaharchalar chegarasi
Qishloqlar (Ovullar) chegaralari